



## Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 947 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 33 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8 914 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 13 386,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 766,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 104,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 620,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 104,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 847,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 104,1 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi**  
*(ulushi foizda)*




**II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2026- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 820 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 52 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 768 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2026- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 18 671,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 15 638,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,1 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 83,8 % ni tashkil qildi.

**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Yangiyo'l tumani (3,4 m.) tumani hamda Chirchiq (4,3 m.) shahrida kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**




**III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI**

2026- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 2 950 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 938 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 641,1 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 71,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**



**IV. METAMA'LUMOTLAR**

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

<b>Chop etishga ma'sul:</b> Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	<b>Ijrochi:</b> M.Mirzokirov Tel: (+99871)203-45-00 (4541)	<b>Manzil:</b> Toshkent shahar Mirobod tumani Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2- uy
--	--	---